

5-SINFDA EZOP HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH**Zaripova Muxlisa***Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 3-kurs talabasi***Allambergenova Nodira***Ilmiy rahbari:*

Annotasiya: *Ushbu maqolada masal janri bo'yicha o'quvchilar bilim va salohiyatini oshirish, va ularga Ezop hayot ijodini tanishtirish haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *adabiyot, janr, masallar, Ezop, qul.*

Hozirgi uchinchi renessans davrida xalqimizning hamda milliy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblangan ma'naviyatning o'zagi hisoblanmish adabiyotga etibor alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan mutlaqo yangi uslubda ishslash va ish o'rghanish uchun mo'ljallangan mobil dasturlar va yangidan yangi ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi zamon falsafasi insonlarni ruhlantirib yubordi negaki biz yashab turgan sayyoramizda texnika va sun'iy intellekt kabi yangidan-yangi innovatsion g'oyalar texnologiyalar va loyihibar taraqqiy topdi. Shu bilan birga insonlarni izlanishga undaydigan omillar ta'sirida yana va yana o'rghanish tizimi takomillashmoqda. Bu davrda insoniyatni bilim tog'ining yuqori cho'qqilarini zabt etishga chorlovchi omillar talaygina. Ulardan foydalanish kerak xolos.

Adabiyot tarixi xalq tarixining ajralmas qismidir. Badiiy adabiyotning taraqqiyoti jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada esa badiiy ijod va adabiyot sohasida ma'naviy va madaniy meros hisoblanmish ahamiyatga molik asarlar dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyot sohasida turli xil ijod yo'naliislari va turfa xil ijodkorlar hayot va ijod faoliyatları o'z o'rnnini topgan. Bugungi kunda mana shunday asarlar hamda asar yaratuvchilari, ularning ijodiy va badiiy qiymati, qimmatini kelgusi yosh avlodga yetkazish va ularda insonparvarlik, vatanga bo'lgan muhabbat, adabiyot-milliy qadriyatlarning asosiy mezoni kabi komil inson g'oyalarini targ'ib qilish bosh masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyot-estetika va ma'naviyat, ruhiyat, badiiy did tarbiyasi quroli. Shu o'rinda muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning „Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida,-„Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.

Nega deganda, Cho'lpon aytganidek adabiyot yashasa-millat yashaydi.”-deganda mutlaq haq edilar.1

So'nggi yillarda tan olishimiz kerakki, yosh avlodning adabiyot haqidagi tushunchasi tor ma'noda ahamiyat kasb etishi ko'ngillarni xira qilmoqda va bu tabiiy holdek ko'rinoqchida. Afsuski aslida bunday bo'lishi kelajak avlodni tarbiyasidek muhim vazifa va burchimizni bajarishda etiborli bo'lishni talab qiladi, buni hozirgi davr talabi desak ham bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, adabiyotni xalq qalbiga avvalo o'qituvchi, pedagog shaxsi orqali o'rgatishimiz va o'rganishimiz kerak. Inson ilm olishdan to'xtamasligi kerak. Shu o'rinda Tashanov Komil ustozimning ilm haqidagi quyidagi gaplarini keltirib o'tmoqchiman,-,,Ilm olish- igna bilan quduq qazish. Ilm olish va ilm berish jon bilan kirib jon bilan chiqadi"-degan edilar.

Anglashiladiki, biz Ezop ijodini o'rganish va uni yosh avlodga o'rgatish kabi ezgu bir maqsad yo'lida ekanmiz, ijodkorning hayot yo'lidagi o'rnak bo'ladigan voqealarni, har bir ijod namunasidan tortib, aytgan so'zlarigacha o'rganish foydali bo'ladi. Tarbiyaviy jihat, g'oyaviy-badiiy ahamiyati, va ayniqla fikrlash, o'z fikrini mustaqil shaxs sifatida bayonn qilishi uchun ham adabiyot va ijod muhim ahamiyatga egadir.

Jahon adabiyotining masalchilik ijodi bilan o'z hissasini qo'shgan Ezop haqida turli xil ma'lumotlar tarqalgan. Ezop taxminan miloddan avvalgi 640-560-yillarda yashagan. Ezop ijodining eng gullagan davri miloddan avvalgi 600-yillarga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarga ko'ra Ezop 400 ga yaqin masal bitgan.

Ezopning nomini birinchi marta Herodot (V asr) asarlarida yo'l-yo'lakay tilga olinadi. Uning asli kelib chiqishi o'sha davrlardagi Frigiya davlatidan bo'lib, urushlar natijasida qul qilib olinib, Yunonistonga kelib qolgan. Ezop aql-u farosati, topqirligi bilan o'z xo'jayinlarining mushkullarini oson qilib, hurmat va e'tibor qozongan.

Qullikdan ozod etilib Lidiya shohi Krez saroyida xizmat qilgan, so'ng Vavilon shohi Likurg saltanatida xazinabon darajasiga ko'tarilgan. Delfada tog' qoyasidan otib yuborib o'ldirilgan. Ezop haqidagi ma'lumotlar o'sha davr yozuvchilari tomonidan rivoyat tarzida yetib kelgan. Ezop o'z hayotida ham donishmandligi bilan o'rnak bo'lgan.

Ezop ijodini o'rganish va o'rgatishda avvalo masal janri muhim ahamiyatga molik. Masal tarbiyaviy ahamiyatga yo'g'rilgan, sodda va ixcham tarzda bayon qilingan hayotiy voqealarning majoziy timsollarda aks ettirilishidir.

Nazariy ma'lumot. Masal (arabcha-namuna, misol)-didaktik adabiyot janri. Ta'limiy harakterdagi, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shakldagi asar.

Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy xodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar hamda tabiyat vositalari asosida aks ettiriladi.

Ezop masallari tili sodda, tushunarli hamda ma'noviy, ma'naviy qiymati bilan ajralib turadi. Ularni 5-sinfda o'qitishning sababi ham ularda hikoyaviy sodda uslubning tez va oson tushunishini hisobga olgan holda o'qitiladi o'rgatiladi.

Ammo masallarni o'rgatishda ularni qayta hikoya qilishdan qochib yangicha uslub va metodlardan foydalangan xolda o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zi adabiyotni o'qitishdan maqsad ham asli insonparvarlik va komil inson tushunchalarini qalblarga singdirish, va holangki yaxshi-yomon voqealikdan kerakli xulosalarni chiqarish, keng fikr yuritish kabi bir qator muhim masalalarni qamrab oladi.

Ayataylik o'quvchi masalni o'qib uni faaqat qayta hikoya qilib baho olishi mumkin. Bu esa eng yomon holat, o'quvchiga asarni qayta hikoya qildirish emas undan xulosa olish va yangi go'yalarini targ'ib qilish kabi ko'nikmalarni berish kerak.

Deylik Ezop masllarini o'rgatishdan maqsad nima?, va yoki ularni qanday o'rgatish maqsadga muvofiq?

-Asarni o'rgatishdan maqsad, asosan 5-sinflarda qiziqish yuqori darajada bo'ladi, shundan unumli foydalangan holda sahnalashtirib, zakovat usullarida o'rgatishni tanlagan bo'lar edim. Albatta bu o'qituvchining ppedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi. Maqsad Ezop masallarining tag zamiridagi voqelikni o'quvchi his qilgan holda nimanidir o'rganishi va nimanidir xulosa qilib ayta olishi kerak.

Adabiyot- o'qitish,o'rgatish jarayonida biroz e'tirozga sabab bo'ladigan tizim mavjud. Bunda yozuvchining hayot-ijodini yodlashdan iboratdek va asarni qayta hikoyalash bilan dars o'tish an'anaga aylanib qolgan.

Amerikaliklarda esa badiiy kitob o'qitilib, ulardan o'rnakli jihatlarini, o'quvchi erkin fikr bildirish orqali xulosalab o'tadi. Bu bilan men bu yaxshi yoki yomon demoqchimasman, aksincha ta'lim tizimida yangiliklar va o'qitish tizimini takomillashtirish, o'quvchi, nafaqat o'quvchi balki oqituvchi, pedagog kadrlar ham o'z ustida qayta va qayta ishlashini talab qilmoqda.

Ko'rindiki, asarni qay darajada o'zlashtirish o'quvchining o'ziga bog'liq bo'lsa, qay darajada yetkaza olish o'qituvchining bilim-saviyasi hamda mahoratiga ham bog'liq. Bu borada „O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutahassisni, avvalombor, rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”,-deydi muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov.²

Xulosa qilib aytganda Ezop masallari soddaligi, ixchamligi hamda tarbiyaviy saviyasi bilan alohida ahamiyat kasb etar ekan, ularni yosh avlodga o'rgatish o'qitishda yangi uslub ve metodlarni shakllantirish, bu borada esa qayta va qayta o'z ustida ishlash kerakligini ta'kidlab o'tishni joiz deb topdim.

O'quvchi mana shu 45 minutlik dars mobaynida yangiliklarni o'rganishi va o'qishga ishtiyoqi oshishi mumkin, va aksincha hech narsa o'rganmasdan ketishi ham mumkin. Shuning uchun kerak bo'lsa o'quvchilarda o'zlashtirish yoki qiziqish sust bo'lsa ular bilan individual va chuqur ishlashish kerak deb o'ylayman.

Negaki mana shu bir soatlik dars ham o'quvchida bir olam taassurotni uyg'otishi mumkin.

Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'qitish metodikalarini kuzatish va o'rganish va yosh avlodga yetarli bilim va ko'nikmalarni yetkazib berish ham hozirgi zamonning dolzarb vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari .Toshkent „Ma'naviyat” 2008.
2. 5-sinf Adabiyoti.1-qism. «ShARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyat.TOSHKENT – 2015.
3. <https://n.ziyouz.com/>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ensiklopediya>
5. Notiqlik san'ati asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent-,,Yangi nashr”-2008.